

**Annotatsiya:** Ushbu mavzuda bayrog‘imizni qanchalik g‘urur, shan va iftixorimiz, baxt-iqbolimiz va ananalarimizni ifodalovchi muqaddas timsol ekanligi haqida bilib olishimiz mumkin. Hamda bayroqning ranglarining tasnifi va moddalar haqida bilib olamiz.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston bayrog‘i, davlat ramzlari, timsollar, konstitutsiya, yulduzlar tasnifi, modda, iftihor, g‘urur.

Har bir inson o‘z bayrog‘ini turli musobaqalarda ko‘plab mamlakatlar oldida eng cho‘qqilarda hilpirab turganligini ko‘rsa beihtiyor yuragida vatanga muhabbat, g‘urur hissini tuyadi va butun vujudi hayaonga, faxru iftixorga to‘ladi. Hurlik, ezgulik, tinchlik timsoli bo‘lgan bayrog‘imiz xalqimiz g‘ayrati va shijoatini, o‘ziga xos mehmondo‘sligini, ajdodlar yodi hamda millat g‘ururini o‘zida mujassam etadi. Bayrog‘imiz - nafaqat davlat ramzi, balki o‘tmish, bugun va ertamizning yorqin ifodasidir. Ruhiyatimiz, g‘urur, shan va iftixorimiz, Vatanimiz, qolaversa, xalqimizga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat, kelajakka komil ishonch va milliy-madaniy ananalarimizni ifodalovchi muqaddas timsoldir u. Istiqlolimiz, baxt-iqbolimiz ramzi bo‘lgan milliy bayrog‘imizni sevib qadrlamagan kishi topilmasa kerak. Bayrog‘imiz, g‘urur va faxrimiz timsolidir. Vatanimizning beqiyos ramzidir. Quyosh ko‘kda falakning bayrog‘i bo‘lib porlab turibdi, ko‘ngilda muhabbat bayrog‘i hilpiraydi, ongimizni esa tafakkur bayrog‘i nurlantiradi. Ozod va obod Vatanimiz — O‘zbekistonning bayrog‘i ham bizni ulug‘ maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash’aladir. Unda ajdodlar orzu-armoni aks etadi. Unda xalqimizning buguni o‘lmas xotirasi, iymon-e’tiqodi, kelajakka bo‘lgan komil ishonchi jilolanadi.

Bilamizki barcha davlatlar o‘zining ramzlariga ega. Jumladan, O‘zbekiston ham o‘z davlat ramzlari: bayrog‘i, gerbi, madhiyasiga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bular aniq belgilab qo‘yilgan.

## **5-modda**

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari davlat himoyasidadir.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunda Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bayrog‘imiz tog‘risida moddalar ham berib o‘tilgan.

### **1-modda**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining sxematik va rangli tasviri tasdiqlansin.

### **2-modda**

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir [1].

Kuni kecha bayrog‘imizdan foydalanganishda ustki kiyimlar bezatishga imkon berildi bunda inson faxr-iftixor va mehr-muhabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirini ustki kiyimga bezatish yoki O‘zbekistonga tegishlilikni belgilash uchun tushirish imkoniyati yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘linishiga yo‘l qo‘yilmaydigan hollar aniq belgilashni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idan keng foydalananish hamda Vatanga nisbatan faxr-iftixor va mehr-muhabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilishini ta’minlash maqsadida mazkur Qonun qabul qilindi. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan zarur hurmatni ta’minlagan holda, undan ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilmagan obyektlarda, shuningdek umummilliy bayramlar, sport musobaqalari, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, madaniy va o‘zga ommaviy tadbirlarda, tantanali tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotiraviy sanalarni bayram qilishda, jamiyat va davlat arboblari, harbiy xizmatchilar dafn marosimlarida hamda boshqa hollarda ham foydalanim lekin yog‘och dastani ishlatmasdan foydalanimishi mumkin [2].

O‘zbekiston bayrog‘i ramzi mamlakat hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli sultanatlar bayroqlariga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublika tabiatiga xos xususiyatlarni, xalqning milliy va madaniy o‘zligini ham aks ettiradi. Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi. Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat bor va albatta, har bir davlatning o‘z ramzlari, bayrog‘i bor. Har bir bayroq ayricha rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog‘imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo‘lmashligimizni ko‘rsatib turadi.

Shuni aytishimiz lozimki, bayroq qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog‘ini muqaddas bilib, uni ko‘z qorachig‘idek asraganlar.

Davlatchilimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba timsoli bo‘lgan. Bu mag‘rur elning

asrlar davomida orzu qilgan g‘ururi, sha'ni, qadr-qimmati, irodasini ifodalovchi ozodlik bayrog‘i edi! Unda ajdodlar orzu-armoni aks etadi. Unda xalqimizning buguni, o‘lmas xotirasi, iymon-e'tiqodi, kelajakka bo‘lgan komil ishonchi jilolanadi.

Azal-azaldan bayrog‘imiz ko‘klarga ko‘tarilgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur g‘oliblik bayrog‘ini yuksak ko‘tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug‘ saltanatni dunyo tan oldi. Bu davr vatan tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Bayroq esa tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug‘vorlik timsoliga aylandi. Jangchilarga jangovar ruh bag‘ishlash, ularning kayfiyatini ko‘tarish, irodasini chiniqtirish maqsadida jang maydonlari uzra baland hilpirab turdi. Bu bayroq eng ishonzhli bahodirlar tomonidan qo‘riqlandi. Bexos daydi o‘q kelib tug‘ ko‘targan jangchiga tegsa-da, u tuproqqa qorishmadi — darhol shahid sarboz o‘rnini boshqasi egallaydi, maqsad janggohdagilarga bayroq ko‘rinmay qolmasin. Bu mag‘rur elning asrlar davomida orzu qilgan g‘ururi, sha'ni, qadr-qimmati, irodasini ifodalovchi ozodlik bayrog‘i edi. Unda ajdodlar orzu-armoni aks etadi. Unda xalqimizning buguni, o‘lmas xotirasi, iymon-e'tiqodi, kelajakka bo‘lgan komil ishonchi jilolanadi [3]. Hozirgi kunkliga kelib esa boyrog‘imiz yanada jilolangan yanada ko‘klarga ko‘tarilmoqda, dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida ham bayrog‘imiz O‘zbekiston ramzi bo‘lib turibdi. Chet ellarda yurganimizda o‘sha yerda hilpirab turgan bayrog‘imizga ko‘zimiz tushishi bilan yuragimizda cheksiz faxr uyg‘onadi, ruhimiz ko‘tariladi. Bayrog‘imiz timsolida dunyoning har qaysi nuqtasida ham O‘zbekiston degan himoyachimiz, suyanchig‘imiz borligini his qilamiz.

Yuksalish va rivojlanish sari dadil hilpirayotgan, xoh osmono‘par binolar peshtoqida bo‘lsin, xoh ish stoli ustida viqor to‘kib turgan Davlat bayrog‘i o‘zida milliy-madaniy an‘analarni mujassam etgani shundoqqina aks etadi. Mamlakat bayrog‘i bu oddiygina timsol emas, balki butun bir mafkura hisoblanadi. Ular mamlakatning tarixi va mafkurasi haqida aytib turadi. Bayroqdagi moviy rang mangu osmon va obi hayot ramzi bo‘lib, tiriklik mazmuni, yaxshilik, donishmandlik, shon-shuhrat va sadoqatdan ma’no beradi. Tinchlik, poklik, beg‘uborlik darakchisi bo‘lgan oq rangning uyg‘unlashuvi ajib bir go‘zallik kashf etayotgan bo‘lsa, yashil rang ona tabiatning yangilanishi, navqironlik, umid va shodlik timsoli hisoblanadi. Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi.

Bayroq uzra ko‘tarinkilik ruhida ufurib turgan qizil chiziqlar vujudimizda jo‘sib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlari bo‘lsa, tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomasiga bevosita aloqador bo‘lgan o‘n ikki yulduz tasviri ham undan o‘rin olgan. O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurimizda “nujum ilmi” taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. O‘n ikki yulduz tasviri o‘zbek xalqi

madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilish ramzi sifatida tushuniladi. Davlatchilimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba timsoli bo‘lgan. Buyuk bobomiz Amir Temur ham davlat ramzlariga jiddiy e’tibor qaratganini jang maydonida bir lashkar omon qolsa ham, Vatani bayrog‘ini baland tutishiga farmon bergenidan bilsa bo‘ladi. Amir Temur g‘oliblik bayrog‘ini yuksak ko‘tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug‘ saltanatni dunyo tan oldi. Sohibqiron bobomiz zamonida bayroqni past tutish yoki sarbozning qo‘lidan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan. Bunga Sohibqiron alohida e’tibor bergan. Bayroqning pasaytirilishi mag‘lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo‘lgan. Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida esa yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan sportchilarimizning yutuqlari esa albatta, qalbimizni vatanparvarlik tuyg‘usiga to‘ldiradi. O‘zbekistonimiz bayrog‘i bilan g‘urur va iftixorga to‘la manzaralar bizni fidoyilikka, vatanparvarlikka, yangi marralarga chorlaydi.

Bayrog‘imiz 1992 yilning 2 martidan O‘zbekiston to‘laqonli suveren respublika sifatida tan olinganining ramzi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohi oldida ham hilpiray boshladи. Mana, qariyb yigirma besh yildirki, u xalqaro maydonda mamlakatimizning kuch-qudrati, mustaqilligimizning jahonaro ifodasi, xalqimiz g‘ururi va iftixori timsoli bo‘lib xizmat qilmoqda. Rivojlanish yo‘lidan dadil ketib borayotgan diyorimiz istiqlolning dastlabki yillaridanoq xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona aloqani izchil yo‘lga qo‘ydi. Bugun har bir hamkor davlatlarda milliy bayrog‘imiz yorqin nurlanayotganiga ko‘zingiz tushadi. Beixtiyor ko‘zlarda yosh aylanadi. Bu kindik qoni to‘kilgan Vatanga, millatga bo‘lgan muhabbat hissidir.

Bayrog‘imiz tom ma’noda Vatan mehrini, haroratini tuyishing uchun kerak bo‘ladigan, yurt qadrini sarbaland qiladigan muqaddas mujda ekanligini men ilk bor Saudiya Arabistoniga safar chog‘ida angladim, – deydi “Farg‘ona haqiqati” gazetasi muxbiri, “Do‘slik” ordeni sohibasi Ma’muraxon Abdurahimova. – Makka shahriga bir kunning o‘zida o‘n milliondan ziyod turli millat vakillari kirib chiqadilar. Ka’ba atrofida ziyoratchilar, olomon shunchalik ko‘payib ketadiki, qisqa daqiqalarda hamrohlaring – guruhdoshlaringni yo‘qotib, yo‘lingdan adashib qolishing hech gap emas. Bunday vaziyatlar ko‘p bo‘lmasa-da, kutilmaganda ro‘y berishi turgan gap. Shunda ko‘zlarimiz eng avvalo guruh rahbari qo‘lidagi O‘zbekiston bayrog‘ini axtarishga tushadi. Hilpirab turgan bayroqni uzoqlardan taniymiz. Zotan ulug‘ manzil, muborak ka’bada bo‘lsang-da, Vatan mehri shu bayroq vositasida bizni o‘ziga tortaveradi. O‘shanda bayrog‘imizning hamma davlatlarnikidan-da chiroyli va aziz ekaniga iqror bo‘lganman.

Hozirgi tinch, osoyishta davrda bayroqlar mustaqillik va milliylikni aks ettirib turadi, har gal dunyo arenalarida, baland peshtoqlarda O'zbekiston bayrog'i hilpiraydi. Bundan quvonchim ichimga sig'maydi, to'lqinlanib ketaman. Chin ma'noda xalq tarixi, buguni va kelajagi ifodasi bo'lgan davlat ramzları ham Vatan kabi aziz va muqaddasdir. Mustaqil O'zbekiston bayrog'i ham har vaqt milliy g'urur, fidoyilik va vatanparvarlikni shakllantirishda eng muhim vosita sifatida qadrlanadi.

Bayrog'imizda yaxshilik, shon-shuhrat, sadoqat, poklik, xalqning navqironligi aks etgan. Shunday ekan, faxr va iftixor, hurmat va ehtirom ruhida qadr topgan davlat bayrog'i hamisha mustaqillik keltirgan buyuk ne'matlardan biri sifatida yuksak qadr topib boraveradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.«O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida.
- 3.ZiyoNET › Библиотека ›
- 4.[unilibrary.uz](http://unilibrary.uz)